


II. SANOAT

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 8 704,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 93,6 foizni tashkil etdi (2020 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 113,9 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,0 foizni (ishlab chiqarish indeksi 114,8 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 1,1 foizni (ishlab chiqarish indeksi 99,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,3 foizni (ishlab chiqarish indeksi 38,2 %) tashkil qildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2021 yilning yanvar-dekabr)


	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	8 704,1	110,2
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	111,5	38,2
<i>ulardan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	111,5	38,2
Qayta ishlash sanoati	8 150,2	113,9
<i>undan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 263,7	112,0
ichimliklar ishlab chiqarish	21,1	70,2
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 331,3	114,2
kiyim ishlab chiqarish	408,2	120,3
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	3,0	116,0
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	49,0	184,2
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	26,1	100,1
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	10,9	101,8
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	90,8	265,7
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	260,3	59,3
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	3,5	59,3

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 514,0	65,3
metallurgiya sanoati	139,8	98,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	52,7	111,2
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	398,1	112,4
komp'yuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	1,9	0,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	122,4	187,8
Mebel' ishlab chiqarish	190,0	120,2
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	83,7	184,4
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	70,2	154,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1 109,5	145337,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	349,0	114,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	93,4	99,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (93,6 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 8 150,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 113,9 foizni tashkil etdi.


**Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida
yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi
(foiz hisobida)**



Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 31,0 foiz ulushini), Zafarobod (13,4 %) va G'allaorol (14,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020 yilning yanvar- dekabriga nisbatan foiz</i>
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	164 288,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	49 577,0	55,7
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	24 512,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	13 433,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	3 522,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	8 083,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	27,0	-
Paxta chigiti	t	75 797,0	114,6
Momiq	t	4 515,5	134,5
Tozalangan paxta yog'i	t	4 483,0	66,6
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	19 247,0	20,5
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	490,0	13,9
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	94,0	7,1
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	63 064,0	96,5
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	38 199,0	36,9
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	2375,0	115,4
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	36 612,8	120,4


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish natijasida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 2020 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 136,4 foizga va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushini esa o'tgan yilning mos davriga 45,7 foizga oshgan .

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-dekabr



2021 yil yanvar-dekabr




■ Oziq-ovqat mahsulotlari

■ Nooziq-ovqat mahsulotlari


Shu bilan birga o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G'allaorol (633,5 %) va Paxtakor (123,3 %), Forish (110,2 %) hamda Arnasoy (140,3 %) tumanlarida yuqori o'sish kuzatilgan.

2022 yilning 1 yanvar holatiga hududlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (26,4 %), G'allaorol (28,1 %), Forish (6,2 %) va Arnasoy (6,0 %) tumanlari hisoblanadi.


Hududlarning iste'mol tovarlaridagi ulushi
(foiz hisobida)



2021 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




2020 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.


Mazkur dastur doirasida 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 3 645,6 mlrd. soʻmlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 49 229,0 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 1 387 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.




2021 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar boʻyicha sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2021 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




2021 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (48,9 %), Arnasoy (55,9 %) va Zarbdor (61,4 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.

2022 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda 3 654 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 840 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.

**Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
kichik biznes korxonalari, birlikda**
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (202 ta) va G'allaorol (128 ta) tumanida joylashgan.

Shuningdek, Sharof Rashidov tumanida (120 ta), Zarbdor (53 ta), Forish (51 ta), Do'stlik (50 ta), Paxtakor (50 ta), Zomin (47 ta), Baxmal (43 ta), Arnasoy (33 ta), Mirzacho'l (31 ta) Zafarobod (18 ta) va Yangiobod (11 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.